

*Jizzakh State Pedagogical Institute*



**Journal of Preschool  
Education**

*The faculty of pre-school  
education*

## MAKTABGACHA TA'LIMIGA RIVOJLANISHIDA JISMONIY YOKI RUHIY BUZILISHLARI BO'LGAN BOLALARNI QAMRAB OLISH

## BE A PHYSICAL OR MENTAL DISORDERS IN THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL EDUCATION

## БЫТЬ ФИЗИЧЕСКИМ ИЛИ ПСИХИЧЕСКИМ НАРУШЕНИЕМ В РАЗВИТИИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Annotasiya** Mazkur maqolada rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish ko'lamini oshirish, davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsad va vazifalari ochib berilgan.

**Annotation** This article outlines the goals and objectives of public specialized pre-school education institutions to increase the coverage of children with physical or mental disabilities in preschool education.

**Аннотация** В данной статье обозначены цели и задачи государственных специализированных дошкольных образовательных учреждений по увеличению охвата детей с ограниченными физическими или умственными возможностями дошкольным образованием.

**Kalit so'zlar:** Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim, kompensasiya, ijtimoiy muhofaza, korreksiyalash, rehabilitatsiya, pedagogik yordam, tarbiyalanuvchi, davolash-sog'lomlashtirish, abilitatsiya.

**Key words:** Specialized preschool education, compensation, social protection, correction, rehabilitation, pedagogical assistance, foster care, rehabilitation, habilitation.

**Ключевые слова:** Специализированное дошкольное образование, компенсация, социальная защита, коррекция, реабилитация, педагогическая помощь, приемная семья, реабилитация, абилитация.

**Mirazimova Muxabbat-o'qituvchi**

**Rayimkulova Zuxra G'ayratjonovna- talaba**

## KIRISH

Bola dunyoga kelar ekan, o'sib – ulg'ayishga, ta'lim – tarbiya olishga, kelajakda biror kasb egasi bo'lishga, Vatan ravnaqi yo'lida fidokorona xizmat qilishga haqlidir. Ana shunday vazifalarni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'rni beqiyosdir. Ma'lumki, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini bo'lib, bolaning barkamol, sog'lom va mustaqil fikrini shakllantirish, qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, yetuk, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, bilim olishga hamda bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlash kabi maqsadlar yo'lida ish olib boradi.

Jamiyatning hozirgi vaqtda eng muhim vazifalarilaridan biri - bu o'sib kelayotgan yosh avlodni ruhiy salomatligini saqlash va mustahkamlash, ularning hayotga moslashish qobiliyatini oshirishdan iborat. Ana shularni inobatga olib rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish ko'lamini oshirish ustuvor vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020 yil 13 oktabrdagi PQ-4860-son «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son «Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2021 yil 12 oktabrdagi 638-son «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi Qarorlari ayni kunda izchillik bilan hayotga tadbiq etilib kelinayotganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo'lgan bolalarni ham maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olish ko'lamini oshirishdan maqsad

ularni ijtimoiy muhofazasi, ta'lim olishi, jamiyatimizga qo'shish, mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensasiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikmalarga ega qilishdan iboratdir. Rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo'lgan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yordam berish, ularni o'z vaqtida ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb qilish, maktabgacha ta'lim olishiga, shuningdek, ularni tarbiyalash va reabilitatsiya qilish asosiy vazifalardan biridir.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya berish, korreksiyalash va davolash-sog'lomlashtirish muassasalari hisoblanadi hamda jismoniy yoki psixik rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishda va ularni bilish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalashda, ularning jamiyatga moslashuvi va integratsiyalashuvida ko'maklashish, shuningdek ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarga farzandlarini tarbiyalash va ularga ta'lim berishda yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsadlari quyidagilardan iborat:

- bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqi amalga oshirilishini ta'minlash;
- bolalarni o'qitish va tarbiyalash, jamiyatga moslashtirish, shuningdek, rivojlanishidagi nuqsonlarni korreksiyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarning yosh va o'ziga xos imkoniyatlariga, qobiliyatlari va ehtiyojlariga muvofiq ularning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishini ta'minlash;
- bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, uning ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim va qo'shma turdagi maktabgacha talim tashkilotlarining vazifalari quyidagilardan iborat:

- Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga, shuningdek, ular asosida ishlab chiqilgan ta'lim-tarbiya va korreksion ishlarni tashkil etish dasturlariga muvofiq tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya va korreksiya-pedagogik yordam berilishini ta'minlash;
- bolalarda Vatanga muhabbat, oilaga hurmat bilan munosabatda bo'lish, milliy qadriyatlar va urf-odatlariga hurmat, o'ziga va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash;
- tibbiy abilitatsiya va rehabilitatsiya o'tkazish, bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni kompensatsiya va korreksiya qilish;
- bolalarga sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkonini beradigan shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligini hamda ta'lim va tarbiya olishni davom ettirishga tayyorligini ta'minlash;
- bolalarni umumta'lim muassasalarida o'qishga tayyorlash;

## XULOSA

Rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olish ko'lamini oshirishning muhim omili nafaqat keng qamrovli tarbiya, balki maxsus ta'limning ajralmas tizimi tamoyiliga psixologik va pedagogik ta'sirni tashkil etish, jamiyatimizda o'z o'rniga ega bo'lish, mavjud nuqonlarini bartaraf etish, korreksiyalash, kompensasiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikma va malakalarga ega qilish, shu bilan birga, ma'lum ko'nikmalar, qobiliyatlar, fe'l - atvor xususiyatlari bilan birga bolaning atrof-dagi tegdoshlari bilan do'stona aloqalari va munosabatlari yaxshilash, mustaqil harakat faoliyatlari majmuasini qayta tiklaydigan shaxsning shakllanishidir. Ushbu maktabgacha ta'lim tashkilotlarini kelajakda rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo'lgan bolalarga mustaqil hayotda o'z o'rnini topib ketishga juda katta yordam bermoqda.



## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 13.10.2020 yildagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi [PQ-4860](#)-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.
3. **Vazirlar Mahkamasi tomonidan 12.10.2021 yildagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi [638](#)-son qaror qabul qilindi.**
4. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog'omova. /Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob/Metodik qo'llanma. – Toshkent. 2012. – 193 bet.
5. MM Normatovna. [Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish va maktab ta'limiga tayyorlash](#). Mejdunarodnaya konferensiya Akademicheskix nauk., 37-40
6. Mirazimova, M. N. (2021). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 786-790.
7. Mirazimova, M. (2021). JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARIDA BADIY GIMNASTIKA ELEMENTLARINI O'RGATISH METODIKASI:. *Мaktabgacha таълим журнали*, 2(2). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/856>
8. Mirazimova, M. (2021). JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARIDA BADIY GIMNASTIKA ELEMENTLARINI O'RGATISH METODIKASI:. *Мaktabgacha таълим журнали*, 3(3). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2151>
9. [UMUMRIVOJLANTIRUVCHI GIMNASTIKANING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI](#)\*M Mirazimova/ ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723